

**Jahon xo'jaligida ikki yoqlama soliqqa torish  
jarayonlarini tartibga solish**

***Rajapov Shuxrat Zaripbayevich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi*

***Annotatsiya:*** maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish va ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda huquqiy bazani shakllanishi hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tartibga solinishi keng yoritilgan.

***Kalit so'zlar:*** xalqaro soliq munosabatlari, xalqaro shartnomalar, davlatlarning soliq stavkalari, soliq sohasidagi yurisdiksiya, soliq suvereniteti konsepsiyasi, rezident va nerezidentlar, oraliq (kondensat) kompaniyalar.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro soliq solish munosabatlari yuzaga kelar ekan, har bir davlat uni o'ziga mos va qulay tarzda amalga oshirishga harakat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda har bir mamlakat o'zining xalqaro soliq solish qoidalarini belgilab borar ekan Rossiyalik olim A.I.Pogorleskiy quyidagi to'rt maqsadga erishishga harakat qilishi lozimligini o'zining "Mejdunarodnoye nalogooblojeniiye" ya'ni "Xalqaro soliqqa tortish" darsligida keltirib o'tgan<sup>1</sup>. Bu asosan:

1) Chet el transaksiyalari orqali keladigan tushumlarda o'ziga tegishli ulushni olish;

Bunda, xalqaro soliq solish qoidasining maqsadi mahalliy va chet el soliq to'lovchilarning transmilliy transaksiyalaridan keladigan tushumni adolatli taqsimlashga ko'maklashish hisoblanadi. Bunga erishmoq uchun har bir mamlakat o'zining mahalliy soliq bazasini himoya qilishi lozim.

2) Qonuniylik (adolatlilik)ni ta'minlash;

Bu holatda ma'lumki, daromad solig'ining boshqa soliqlardan ustunligi bu

---

<sup>1</sup> Давронов З. Илмий ижод методологияси. – Т.: Иқтисод-Молия, 2007.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

uning adolatliligidadir. Umuman olganda, adolatlilik bir hil daromadga ega bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan bir hil soliq yuki taqsimlanganda, soliq to'lovchilar soliqni to'lay olish imkoniyati inobatga olin holda ta'minlanadi.

3) Mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish;

Bu ham har bir davlat o'zining fuqarolari va rezidentlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Shu bilan birga har bir davlat o'zining norezidentlariga qulay sharoit yaratish uchun harakat qilmog'i lozim.

4) Kapital-eksport va kapital-import neytralligi;

Mazkur holatda bu maqsadga erishishda har bir davlat o'zining xalqaro soliq solish tizimini yaratishda, kapital eksporti va importi oqimini rag'batlantirishga tusqin bo'lmasligiga alohida e'tibor bermog'i lozim. Ko'pgina malakatlar uchun chetdan kapital oqimining kirib kelishi ma'qullanadi va bunga turli soliq imtiyozlari yoki boshqa preferensiyalar beriladi. Shu bilan birga mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi mamlakat milliy boyligini kamaytiradi deb qaraladi va unga qarshi turli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

“Soliqqa oid xalqaro shartnomalar va bitimlar” hamda “O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi” tadqiqiga tizimli yondashuv usulidan foydalanish, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish va ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda huquqiy bazani shakllanishiga zamin yaratadi.

Bu o'z navbatida xalqaro soliq munosabtlarida norezidentlar ishtirokidagi kelishuvlarda ikkiyoqlama soliq solishga yo'l qo'ymaslik uchun xalqaro bitimlar normalarini amaliyotda to'g'ri va o'z vaqtida qo'llash uchun asosiy tamoyillari, shakllari va tashkiliy modellarining xususiyatlarini hamda rivojlanish qonuniyatlarini yoritishda qiyosiy tahlil va mantiqiy yondashuv usulidan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasining veb-saytidagi xalqaro shartnomalarda davlatlarning soliq stavkalari ko'rsatkichlari tahlilidan miqdoriy va

sifat tahlili kabi usullaridan foydalanildi<sup>2</sup>.

Soliq sohasidagi davlatlararo munosabatlarni tartibga solishning nazariy va huquqiy asoslari davlat suverenitetini milliy va xalqaro darajada soliq munosabatlarini huquqiy tartibga solishning asosi sifatida doktrinal tushunchani ochib berdi, soliq suvereniteti va soliq sohasidagi yurisdiksiyaning muhim xususiyatlari o'rganildi (soliq sohasidagi yurisdiksiya), ushbu tushunchalar o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

Soliq munosabatlarini tartibga solish manbai sifatida xalqaro soliq shartnomasi uning soliq va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Bu ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olish bilan bog'liq barcha masalalarni tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Soliq suvereniteti konsepsiyasi haqida batafsil to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda soliq, davlat byudjet va davlatning iqtisodiy-huquqiy xususiyatiga tegishli bo'lgan O'zbekiston amaliyotida soliq suverenitetining konstitusiyaviy asoslari ishlab chiqilganligini ta'kidlash lozim va bu davlatning soliq suvereniteti, soliqni belgilashning qonuniy shakli, majburiy tabiati va uni to'lashdan ozod qilish ekanligini taqozo etadi.

O'zbekistonning soliq suverenitetining asoslarini belgilovchi Konstitusiya, shu qatorda xalqaro soliq munosabatlarining barcha subyektlari tomonidan davlatning o'z hududida iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslardan soliqlar va yig'imlarni belgilash va undirish huquqini tan olishini, shu bilan birga O'zbekistonga xalqaro shartnomalar tuzishga imkon beradi. Milliy qonunchilik bilan taqqoslanadigan xususiyatlarni nazarda tutuvchi soliq masalalari bo'yicha davlatlarning o'z hududlaridan daromad olayotgan rezident va nerezidentlardan soliqlarni undirishi xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish muammolarini keltirib chiqardi.

Yuqoridagi tahlillarimiz natijasida xalqaro tashkilotlar iqtisodiy

---

<sup>2</sup> Brian J. Arnold, Michael J. McIntyre, International Tax Primer, Second Edition, Kluwer Law International, The Hague/London/New York, 4-7 pp  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

ko'rsatkichlarni yaxshilash va yangi ish joylarini yaratishdan tortib, muhim ma'lumotlar olishga va xalqaro soliqlarni to'lashdan qochishga qarshi, ma'lumotlar va tahlillar, eng yaxshi tajribalarni almashish va davlat siyosati va xalqaro standartlar bo'yicha maslahatlar olishga imkoniyat yaratadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Miles Dead, Richard Williams, Deloitte Discovery Global Leader., Features – A Challenging Move on the International Stage: Zero Withholding on Direct Dividends in the New US-UK Tax Treaty., Michael Kobetsky, International Taxation of Permanent Establishments Principles and Policy. Australian National University College of Law.2021

2. Reuven S. Avi-Yonah, "Double Tax Treaties: An Introduction." In The Effect of Treaties on Foreign Direct Investment: Bilateral Investment Treaties, Double Taxation Treaties and Investment Flows, edited by K. P. Sauvant and L. E. Sachs, 99-106. Oxford: Oxford Univ. Press, 2009.

3. Richard L. Doernberg, Overriding tax treaties: The USA Perspective, 9 Emory Int'l L.Rev.71.71(1995).

4. Roy Saunder, Understanding Double Tax Treaties, International Business Structuring Association (2014), Article 14. Published online: 31 July 2014, available at <http://www.istructuring.com/knowledge/article/understanding-double-tax-treaties/> (last access: 11 May 2017)

5. Vikulov K.Ye. Pravila nalogooblojeniya inostrannykh organizatsiy, deystvuyushchix cherez postoyannoye predstavitelstvo: opyt OESR i pravovoye regulirovaniye v Rossii : dissertatsiya ... kandidata yuridicheskix nauk : 12.00.14